




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-fevral)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 727,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 55,1 mln. AQSh dollariga yoki 8,2 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 276,7 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 119,1 %) va import hajmi 450,4 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 102,4 %) yetdi. Hisobot davrida 173,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-fevralga nisbatan, %da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-fevral mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Qozog'iston	167,4	23,4	144,0	23,0
Rossiya Federatsiyasi	145,6	40,7	104,9	20,0
Turkiya	136,0	117,4	18,6	18,7
Xitoy	93,3	20,6	72,7	12,8
Afg'oniston	20,4	20,4	0,0	2,8
Braziliya	18,3	0,0	18,3	2,5
Ukraina	16,1	6,8	9,4	2,2
Koreya Respublikasi	15,3	1,2	14,1	2,1
Qirg'iz Respublikasi	10,2	6,4	3,8	1,4
Qatar	8,2	8,2	0,0	1,1
Italiya	7,9	1,3	6,7	1,1
Tojikiston	7,9	7,1	0,7	1,1
Germaniya	7,4	0,7	6,7	1,0
Litva	6,1	0,1	6,0	0,8
Singapur	5,2	5,1	0,1	0,7
Polsha	4,8	1,4	3,5	0,7
Niderlandiya	4,6	3,4	1,2	0,6
Belgiya	4,3	0,0	4,3	0,6
Irlandiya	3,9	0,0	3,9	0,5
Belarus	3,6	1,7	1,9	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-fevral oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,8 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2020- yilning shu davriga nisbatan 116,8 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar-fevral oyida 54,8 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 51,2 %ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-fevral, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi va Armaniston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Afg‘oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Xitoy davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-fevral oyi yakuni bilan 276,7 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 119,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,9 %), turli xil tayyor buyumlar (8,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,6 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,9 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,9 %) guruhlariga hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	276,7	88,3	188,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,2	11,1	19,1	10,9	12,6	10,1
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,2	0,0	0,10	0,3	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	9,8	3,2	6,6	3,6	3,7	3,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	0,0	0,6	0,2	0,0	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	8,0	5,1	2,9	2,9	5,8	1,5
Sanoat tovarlari	196,7	41,2	155,5	71,1	46,7	82,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	5,3	3,5	1,7	1,9	4,0	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	24,1	23,6	0,4	8,7	26,7	0,2
Xizmatlar	1,9	0,2	1,6	0,6	0,2	0,9






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-fevral)

2021-yilning yanvar-fevral oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	119,1	123,3	117,3
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	144,7	90,0	224,1
Ichimliklar va tamaki	54,6	46,3	332,4
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	58,4	93,5	49,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	519,8	9,3	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	125,2	121,9	131,6
Sanoat tovarlari	121,1	138,1	117,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	125,7	202,8	70,4
Turli xil tayyor buyumlar	119,9	123,5	46,9
Xizmatlar	194,7	73,3	245,0



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-fevral)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Qatar Respublikasi va Tojikiston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 237,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 86,0 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 18,5 mln. dollar qiymat ega 26,0 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 140,4 % o'sgan, naturada – 7,5 % kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 13,1 mln. AQSh dollariga teng 19,9 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 51,1 % ga o'sgan), shuningdek 3,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 116,9 %ga teng).

2021- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari

			
Meva va rezavorlar	Uzum	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
4,3 ming tonna	0,8 ming tonna	1,1 ming tonna	19,9 ming tonna
3,2 mln. AQSH dollari	0,8 mln. AQSH dollari	1,4 mln. AQSH dollari	13,1 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 16,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 2,2 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-fevral)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-fevral oylari mobaynida import hajmi 450,4 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 102,4 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,5 %), sanoat tovarlari (18,4 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (18,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	450,4	266,4	184,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	73,1	40,0	33,0	16,2	15,0	18,0
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,6	0,0	0,1	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	83,8	80,1	3,7	18,6	30,1	2,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	37,1	37,0	0,2	8,2	13,9	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	14,9	14,4	0,5	3,3	5,4	0,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	31,8	8,7	23,1	7,1	3,3	12,6
Sanoat tovarlari	82,9	58,5	24,4	18,4	21,9	13,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	105,9	26,3	79,6	23,5	9,9	43,3
Turli xil tayyor buyumlar	16,6	0,7	15,9	3,7	0,3	8,7
Xizmatlar	3,7	0,1	3,5	0,8	0,1	1,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (30,1 %) va sanoat tovarlari (21,9 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,0 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-fevral, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	102,4	114,8	88,6
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	196,4	145,6	340,0
Ichimliklar va tamaki	191,2	234,5	38,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	64,6	73,1	18,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	178,1	178,4	124,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,1	196,7	31,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	141,6	173,4	132,5
Sanoat tovarlari	140,9	164,2	105,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	79,4	116,4	71,9
Turli xil tayyor buyumlar	83,0	22,0	94,6
Xizmatlar	58,5	50,2	58,9





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-fevral)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 382,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,8 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59